

QURDOSH AKANING IBRATI

Bahodir Karimov,
professor

Ichkarida aytadigan gaplarim ko‘p. Yuqoridagi sarlavhani qo‘ydim va o‘ylanib qoldim. Qurdosh akaning odamiylik fazilatlarini haqida yozsammikin yo kitoblari to‘g‘risida? To‘g‘risi, shu savolni bera turib, yana o‘zimga o‘zim tanbeh berdim. Ijod ahli, ilm odamlarini yozganlari bilan shaxsini ajratib bo‘lmaydi. Darhaqiqat, shunday. Professor Qurdosh Qahramonov bir necha o‘n yildan beri taniyman. Biror o‘rinda o‘ziga xos halimlik va kamtarligiga xilof ish tutganini kuzatmadim. Ammo qat’iyatga guvoh bo‘ldim. Bir zamonasozlik qilayotgan hamkasbiga yuzing-ko‘zing demay, hatto yonlarida mening borligimni ham inobatga olmay, shartta-shartta zarur va haq gaplarini aytdi. Ammo madaniy muomala doirasida bari. Oraga “kechirasiz-u”, deganicha bir to‘xtab, “uzri”ni ham qo‘shdi. Men sokin daryoning cho‘qir bo‘lishini shunda ko‘rdim, sezdim. Garchand shu hodisa bo‘lganiga oradan sal kam o‘n yillar o‘tgan bo‘lsa-da, Qurdosh akaning adolat talabidagi qiyofasi, ma’naviy jasoratga ega bu inson obrazi hali hamon xayolim ko‘zguvidan o‘chgani yo‘q. Shuning uchun Qurdosh akani hurmat qilaman.

Bugun yetmish yoshga to‘lgan olim o‘z ijodini, adabiyot maydonida qilgan xizmatlarini bir elakdan o‘tkazishi, sarhisob qilishi, mutaxassislar huzurida hisobot berishi tabiiy. Qurdosh Qahramonov o‘z faoliyati davomida bir pedagog va adabiyotshunos olim qilishi mumkin bo‘lgan xizmatlarni bajardi. Respublikaning barcha viloyatlarida ishlayotgan yuzlab o‘zbek tili va adbiyoti muallimlariga ta’lim berdi; ayrim filolog olimlar tadqiqotlariga ilmiy rahbarlik qildi. Qurdosh aka adabiy hayotda faol, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bo‘lib o‘tadigan kengashlarning yillik hisobotlarida adabiy tanqid, nasr yoki nazm xirmoni xususida jiddiy va xolis ma’ruzalar qiladi.

Istiqlol yillarida Qurdosh Qahramonov adabiyotshunoslik muammolari, xususan, adabiy tanqidning metodologik qirralarini o‘rgandi. Badiiy asarga baho berish, shoir yoki yozuvchilar ijodini tadqiq qilishga nisbatan adabiyotshunoslik asarlarini, adabiy tanqidiy maqolalar va ularning mualliflari saviyasini baholash oson emas, albatta. Buni men Vadud Mahmud ijodini o‘rgangan mahali va keyinchalik qodiriyshunoslarning yozganlariga tekshirish pallasi shaxsan o‘zim boshimdan kechirdim. Ikki hissa ishlash kerak. Tahlil talqinlardan tashqari o‘sha olim munosabat bildirgan badiiy asarlarni ham o‘qib chiqish lozim.

Qurdosh Qahramonov yozgan “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti”, “Adabiy jarayon va estetik talqin”, “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” va

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ko‘plab maqolalari olimning ilmiy-nazariy tafakkurining ko‘lamini, mantiqiy fikrlash tarzini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, adabiy tanqidda yangilanish maydonga keldi. Xo‘sh, uning sabablari qanday va sababchilari kimlar? Yangilanish, yangicha tafakkur – olimga aloqadormi, bilimgami yoki zamonga? Qurdosh Qahramonov shunday ko‘plab savollar ustida mulohaza yuritdi. Badiiy asarga yondashuvlarda o‘zgarishlar yuz bergani va dunyo adabiyotshunosligidagi metodlar o‘zbek adabiy tanqidchilari ijodiga ta‘sir qilayotgani borasida o‘rinli mulohazalar yozdi. “Adabiy tanqidning muhim metodologik asoslaridan biri - ifoda usuli va uslubiy o‘ziga xosligi uning ham ilmiy va ham badiiy ijodga birdek daxldorligidadir. Bir so‘z bilan aytganda, adabiy tanqid ilmiy tafakkurning obrazli fikrlash tarzi bilan bog‘liq ifodasi”. Qurdosh akaning adabiy tanqid xususidagi bu muhim ta‘rifi asosida ilmiy va badiiy tafakkurning uyg‘unligiga urg‘u beriladi. Zero, adabiy tanqidchi uchun ko‘p o‘qishdan tashqari turli saviyadagi insholarni ilmiy-nazariy jihatdan xolis baholashi, ayniqsa, badiiy ijod tabiatini ham chuqur anglashi lozim. Qurdosh akaning mulohazasi shu e‘tibordan muhim, albatta.

Qurdosh Qahramonov o‘z hamkasb adabiyotchilar fikrini hurmat qiladi. Kattami yo kichikmi birovdan fikr olsa, uning manbasini, albatta ko‘rsatadi. Ilm-fanda boshqalarning qarashlarini uslubiy tarafdin bir oz tahrir etib o‘zlashtirish kasalligi urchigan hozirgi global o‘zanparastlik zamonda Qurdosh akaning ilmdagi bu yo‘li yon-atrofidagi ko‘plar uchun ibratlidir.

Qurdosh Qahramonovning Respublikaning ulkan adabiyotshunos olimlar bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligi oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun juda ham muhim manba ekanini ham ta‘kidlashni istar edim.

Men tanigan Qurdosh aka minbarparast emas. Men tanigan Qurdosh aka olimlikdan odamiylikni ustun qo‘yadi. Huzuriga o‘zidan kattalari tugul, yoshi kichiklarni chorlab manmansiramaydi. Bir kuni odatdagidek Qurdosh aka qo‘ng‘iroq qildi. Bir gaplashib olsak, degan ma‘noda. Keldi. Hamishagi holat – sokin va mayin nimtabassumli Qurdosh aka. Gaplashdik. Bir odatiy muammo. Oramizda bir dissertatsiyadagi iqtiboslarga havolalar berilmaganlik xususida gap borardi. Hali himoya bo‘lmagan ish ekan. Maslahatlashib, dissertatsiya ortida turgan odamni o‘ylab, o‘sha nimkalla tadqiqotning kamchliklarin tuzatish shart, degan xulosaga keldik. Darhaqiqat, dissertant tajribasizlik qilganini tan oldi. Ishni tuzatdi. Mayli besh emasdir, bahosi to‘rt yoki uchdir. Zotan, dissertatsiya himoya qilganlarning hammasi ham olim bo‘lavermaydi. Ko‘plari fan doktori bo‘ladi, biroq odamlikka nomzodligicha qoladi. Himoya qilingan tadqiqotlarning hammasi ham favqulodda yangiliklarga to‘la bo‘lavermaydi. Odatdagidek, kunlik urfga binoan dissertantlar

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ko‘pincha ko‘rganlaridan ko‘chirishadi. Xulosa, shu zaylda bir odam taqdiri ustida qayg‘uradigan inson Qurdosh aka.

Muhimi birovlariga hasad qilmaydi. Ko‘ngli toza odam. Ikkinchidan, yaxshini, o‘z yuragiga yaqin odamlarni qo‘llab quvvatlash yo‘lidan yuradi. Bu ham Qurdosh aka hayotiy va ilmiy ijodiga xos juda muhim ibratli tamoyillar sirasiga kiradi.

Gapim tuganchiga yetdi. Qurdosh akaga salomatlik, xotirjamlik tilayman.

(04.04.2023)